



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

No5
MAXSUS SON



**Toshkent davlat
iqtisodiyot universiteti**



**“Yuksak intellektual yoshlar
hamdo‘stligi-kelajak
iqtisodiyot poydevori” talabalar
xalqaro festivali doirasida
o‘tkazilgan “O‘zbekistonning
“Yashil” iqtisodiyotga o‘tish
strategiyasi: mavjud muammo
va istiqbolli imkoniyatlar”
mavzusidagi maqolalar to‘plami**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2024-yil
17-18-oktabr**



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 131 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 19-aprelda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoiraz Azimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongirاتبay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Viktorovna, Candidate of Economic Sciences (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilkhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 28-fevraldagi
333/5-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN'IY INTELLEKTNING O'RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.



Kuvatova Oliya Sheraliyevna

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
"Moliya va moliyaviy texnologiyalar" kafedrası
Katta o'qituvchisi PhD
oliyakuvatova0808@gmail.com

Husenov Muhriddin Bahriddinovich

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti
Moliya fakulteti talabasi
mukhriddinhusenov@gmail.com

Annotatsiya: So'nggi yillarda zamonaviy texnologiyalar sohasida kuzatilgan inqiloblardan biri bu Sun'iy Intellekt (SI) bo'ldi. Xususan, o'z iqtisodiyotini barqarorlashtirishni maqsad qilgan mamlakatlar bu texnologiyalarni faol ravishda turli xil sohalar bilan integratsiyalashuv jarayonlarini ko'rib chiqib boshlashdi, xususan yashil iqtisodiyot. Yashil iqtisodiyot dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etib, har qanday sohalar bilan integratsiyalashuvi lozimdir. Uning barcha sohalarini qamrab olishi va birdek barcha uchun muhimligi uning dolzarbligini aniqlab beradi. Hozirgi kunda O'zbekiston shaharlari jadallik bilan urbanizatsiyalashib bormoqda va bu bir qator iqtisodiy to'siqlar yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda. Bilamizki, bunday sharoitlarda ortiqcha energiya iste'moli, resurslar tanqisligi, hamda ifloslanish oshishi holatlari kuzatiladi.

Maqolada O'zbekiston yashil iqtisodiyotini rivojlantirishda sun'iy intellektning rolini ko'rib chiqilgan. Shuningdek, ekologik sharoitlardan kelib chiqib, SI texnologiyalar integratsiyalashuvi orqali iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash usullari va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan to'siq, kamchiliklar o'rganib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, Sun'iy Intellekt, Urbanizatsiya, aqlli shahar, Iqtisodiy barqarorlik, ekologiya.

Abstract: In recent years, one of the most significant technological revolutions has been the emergence of Artificial Intelligence (AI). Countries striving to stabilize their economies have increasingly explored the integration of these technologies across various sectors, particularly in the green economy. The green economy holds global importance and must be integrated with all sectors. Its relevance is defined by its comprehensive impact and universal significance. Currently, cities in Uzbekistan are rapidly urbanizing, which is giving rise to several economic challenges. In such conditions, we often witness increased energy consumption, resource shortages, and growing pollution.

This article examines the role of artificial intelligence in the development of Uzbekistan's green economy. It also analyzes the methods of ensuring economic stability through the integration of AI technologies based on ecological factors, as well as the potential obstacles and shortcomings that may arise.

Key words: Green economy, Artificial Intelligence, Urbanization, smart cities, Economic stability, ecology.



Аннотация: One of the revolutions observed in the field of modern technologies in recent years has been Artificial Intelligence (AI). In particular, countries aiming to stabilize their economies have begun to actively consider the processes of integrating these technologies with various sectors, in particular the green economy. The green economy has gained significant importance on a global scale and must be integrated with any sectors. Its encompassing of all sectors and its importance to everyone equally determines its relevance. Currently, the cities of Uzbekistan are rapidly urbanizing, which is causing a number of economic obstacles. We know that in such conditions, excessive energy consumption, resource shortages, and increased pollution are observed. The article examines the role of artificial intelligence in the development of the green economy of Uzbekistan. It also examines the ways to ensure economic stability through the integration of AI technologies, taking into account environmental conditions, and possible obstacles and shortcomings.

Ключевые слова: Green economy, Artificial Intelligence, Urbanization, smart city, Economic sustainability, ecology.

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida insoniyat turli ko'rinishdagi ekologik muammolarga duch kelmoqda va bu muammolarni bartaraf etgan holda iqtisodiy faoliyatni barqarorlashtirish mamlakatlar uchun ustuvor konsepsiyalardan biriga aylangan. Yashil iqtisodiyot – uzoq muddatli iqtisodiy faoliyat davomida ekologik xavflarni bartaraf etib, resurslar tanqis sharoitida iqtisodiy barqarorlikka erishishga qaratilgan yo'nalish hisoblanadi. Davlatlar yashil iqtisodiyot tomon intilayotgan bir paytda, ular iqlim sharoitlariga moslashgan holda ekologik muammolarni yumshatish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash kabi ikki tomonlama muammolarga duch kelmoqdalar.

Xususan, mamlakatimizda yuz berayotgan iqtisodiy liberallashuv jarayonida ham yashil islohotlarning tatbiqini kuzatish mumkin. 2021-yil 31-oktabr – 12-noyabr kunlari Shotlandiyaning Glazgo shahrida bo'lib o'tgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Iqlim o'zgarishi bo'yicha 26-Doiraviy Konvensiyasi Tomonlari konferensiyasida [1] O'zbekiston 2030-yilga kelib yalpi ichki mahsulot birligiga to'g'ri keladigan issiqxona gazlari emissiyasini 2010-yildagi darajadan 35 foizga qisqartirishini ma'lum qildi. Ushbu maqsadni strategik tarzda amalga oshirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-sonli [2] qarori asosida 2019–2030-yillarda "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'yicha Milliy strategiya ishlab chiqildi.

So'nggi yillarda texnologiya sohasida yuz berayotgan tub o'zgarishlar sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining ekologik muammolarni hal etish imkoniyatlarini kengaytirmoqda. SI texnologiyalarining katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlay olish qobiliyati, ularni doimiy yangilab borishi hamda tahlil qilish funksiyasi ekologik siyosatda ortiqcha xarajatlardan saqlanishga yordam beradi. SI texnologiyalarining yashil iqtisodiyotga integratsiyalashuvi nafaqat barqaror amaliyotga o'tish jarayonini tezlashtiradi, balki kelgusidagi innovatsiyalar va o'zgarishlar uchun poydevor vazifasini ham bajaradi.

Yashil iqtisodiyot va SI texnologiyalarining integratsiyalashuv jarayoni murakkab ko'rinsada, u orqali amalga oshiriladigan kichik o'zgarishlar yordamida sezilarli natijalarga erishish mumkin. Mavjud iqtisodiyot, SI texnologiyalari va ekologiya bo'yicha bilimlarimiz asosida quyidagi to'rtta yo'nalishga ta'sir ko'rsatish imkoniyati mavjud: qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, elektroenergetika va transport. Ushbu yo'nalishlarda olib borilgan tahlillar quyidagi xulosalarga asoslanadi:

Birinchidan, mamlakat hududida ishlab chiqarish hajmi ortgani sari atmosferaga chiqariladigan uglerod chiqindilarining ko'payishi tabiiy holatdir. Bu jarayonda SI texnologiyalari ushbu chiqindilarni nazorat qilish va kamaytirishda muhim vosita bo'lib xizmat qila oladi.

Ikkinchidan, SI texnologiyalari muammolarga yechim topishda to'laqonli mustaqil tizim sifatida emas, balki tizimli hamkorlikda ishlaydi. Ko'plab hollarda, biz natijalarni bilvosita ta'sirlar orqali kuzatishimiz mumkin. Shu bilan birga, SI texnologiyalarining o'zi ham doimiy tarzda takomillashtirilishi uchun ma'lum miqdorda energiya talab qiladi. Shuning uchun, ularni sohalarda qo'llash bilan birga qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishni ham rag'batlantirish lozim. Aks holda, kutilgan samaradorlikka erishilmasligi mumkin.

Uchinchidan, yashil islohotlarga so'nggi yillarda e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, ko'pgina mamlakatlar, jumladan, rivojlangan davlatlar ham bu borada yetarli tajribaga ega emas. Ekologik xavflar barcha mamlakatlar uchun umumiy xavf tug'dirar ekan, global miqyosda siyosiy va iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish zarurdir. Aks holda, rivojlangan mamlakatlar yuqori malakali mutaxassislar va katta mablag'lar evaziga ko'proq natijalarga erishadi, bu esa dunyo miqyosida notenglik holatlarini keltirib chiqarishi mumkin.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, yashil iqtisodiyot va SI texnologiyalarining uzviy integratsiyasi ekologik barqarorlik va iqtisodiy rivojlanishning muhim omili sifatida qaralishi lozim.



ADABIYOTLAR TAHLILI

Sun'iy intellekt (SI) texnologiyalari va yashil iqtisodiyot o'rtasidagi integratsiyani tahlil qilganda, aqlli shaharlar (smart cities) konsepsiyasi alohida e'tiborga loyiq. Yigitcanlar (2021) ta'kidlaganidek [3], SI texnologiyalari hukumatlarga aqlli shaharlarni tashkil etishda yuqori samaradorlik, barqarorlik va innovatsion yondashuvlarni joriy etish imkonini beradi. Biroq, hozirgacha bo'lgan amaliy tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, ko'plab aqlli shahar loyihalari ekologik va iqtisodiy jihatlar yetarlicha hisobga olinmaganligi, hamda faqat xarajatlarni qisqartirishga qaratilganligi sababli muvaffaqiyatsizlikka uchragan.


Ushbu holatlarni inobatga olgan holda, Gozgor [4] yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda barqarorlikni ta'minlash maqsadida "yashil sun'iy intellekt" strategiyasini ilgari surgan. Bu strategiya orqali ekologik xavflarni kamaytirish bilan birga iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkin.

Sun'iy intellekt texnologiyalari strategik yondashuv sifatida barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Sining asosiy ustunliklaridan biri – katta hajmdagi ma'lumotlarni tez va aniq tahlil qila olishidir. Bu imkoniyat orqali ekologik loyihalarning xavf darajasini baholash, ularning atrof-muhitga ta'sirini bashorat qilish, hamda risklarni kamaytirish choralari ishlab chiqilishi mumkin. Liu Z. [5]ning fikricha, SI texnologiyalarining bashorat qilish funksiyasi, ayniqsa, hali tajriba orttirmagan mamlakatlar uchun "yashil iqtisodiyot" loyihalarini amalga oshirishda samarali yechimlar taqdim eta oladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Sun'iy intellekt texnologiyalari nisbatan yangi soha bo'lishiga qaramasdan, u jadal rivojlanib, insonlarning kundalik faoliyatida tobora ko'proq qo'llanilmoqda. Sining funksional imkoniyatlari kengayib borar ekan, korxonalar uni ishlab chiqarish jarayonlariga keng tatbiq eta boshladi. Shu bilan birga, SI texnologiyalarining iqtisodiyot, atrof-muhit va jamiyatga ta'sirini har tomonlama tahlil qilish zarurdir. Bu tahlil SI texnologiyalarining nafaqat foydali jihatlarini, balki salbiy ta'sirlarini ham aniqlashga yordam beradi hamda ularni xavfsiz va barqaror tarzda joriy etishga xizmat qiladi.

Endi o'sib kelayotgan yo'nalish sifatida ko'rib kelingan, Sining yashil loyihalarga, atrof muhitga bo'lgan ko'pchilik tomondan chalkashliklarga olib kelishi tabiiy hol. Bu jarayon, SI texnologiyalar, tadbirkorlar va hukumat chambarchas bog'liq bo'lib, bir necha bosqichlarda amalga oshiradi (1-rasm).



1-rasm. Tadbirkorlar va Hukumat ishtirokida SI texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri (strelkalar qalinligi jarayon tezroq amalga oshirishini anglatadi).



1-rasmdagi sxemada tasvirlanganidek, hukumat yangi texnologiyalarni qonunchilikka tadbirkorlarning murojaatlari asosida kiritadi. Tadbirkorlar esa yangi ehtiyojlar yuzaga kelgan sari ularni qondirish maqsadida turli sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarini joriy qilishga intilishadi. Bu jarayonda hukumat va tadbirkorlar o'z faoliyatlarini uzluksiz davom ettirish uchun tabiiy resurslardan foydalanishga majbur bo'ladi, bu esa atrof-muhitga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, SI texnologiyalarini ishlab chiqarishning o'zi ham ma'lum miqdorda resurs talab qiladi.

Natijada, SI texnologiyalarining qo'llanilishi orqali kichik ustunliklar evaziga atrof-muhitga yetkaziladigan zarar miqdori kamayadi. Bu esa yillar davomida kichik ijobiy o'zgarishlarning yig'indisidan tashkil topgan tendensiyani yuzaga keltiradi va keng ko'lamli ijobiy natijalarga olib keladi.

SIning ekologiyaga bo'lgan ijobiy ta'siri ko'p hollarda bilvosita tarzda kuzatiladi. Bu ta'sir turli sohalarda turlicha shakllarda namoyon bo'ladi:

Shahar va transport tizimlarida SI qo'llanilishi. Aholining kundalik hayotini qulaylashtirish istagi ularning vaqtni tejashga intilishiga olib keladi. Bu borada SI texnologiyalari muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlarda yo'l tirbandliklarini bartaraf etish maqsadida SI tizimlari faol joriy etilgan. SI orqali tirbandliklarning samarali boshqarilishi, transport vositalarining to'xtab-to'xtab yurishiga olib keluvchi holatlarning kamayishiga, bu esa o'z navbatida ifloslantiruvchi gazlar miqdorining pasayishiga hamda yoqilg'i sarfining optimallashtiruviga olib keladi.


Tadbirkorlik subyektlarida SI tatbiqi. SI texnologiyalari orqali korxonalar nafaqat ortiqcha sarf-xarajatlarning oldini oladi, balki qayta tiklanadigan resurslardan foydalanish imkoniyatlari ham kengayadi. Xususan, elektr energiyasining ishlab chiqarilishi va iste'mol darajasi bo'yicha SI orqali tahlillar olib borilib, hukumat va xususiy sektorga resurslarni to'g'ri taqsimlash bo'yicha takliflar ishlab chiqiladi. Bu esa energetik samaradorlikka erishish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlaydi.

Innovatsiyalarda SI imkoniyatlari. Yashil iqtisodiyot rivojlanayotgan soha sifatida yangi g'oyalarga, texnologiyalarga va yondashuvlarga ehtiyoj sezmoqda. Bu ehtiyojni qondirishda SI texnologiyalari katta ahamiyatga ega. SI texnologiyalari insonlardan farqli o'laroq, katta hajmdagi turli xil ma'lumotlarni saqlab qolish, qayta ishlash va muammolarga bir necha yondashuvlar asosida eng optimal echimlarni taklif qilish qobiliyatiga ega. Natijada, loyihalarning kamchiliklari tezkor bartaraf etilib, moliyaviy xarajatlar ham minimal darajada ushlab turiladi.

Ijtimoiy xavfsizlik va davlat boshqaruvida SI o'rni. SI texnologiyalarining jamiyatga ko'rsatadigan ta'siri beqiyosdir. U nafaqat kasb va sohalarga, balki davlat boshqaruvi tizimlariga ham tubdan o'zgarish kiritmoqda. Bugungi kunda ko'plab davlatlar fuqarolarga xizmat ko'rsatish va ma'lumotlarni boshqarish tizimlarini raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda. Bu esa katta hajmdagi ma'lumotlar oqimini boshqarishni taqozo etadi. Hukumat fuqarolar xavfsizligini va ma'lumotlar maxfiyligini ta'minlashda SI tizimlarining tezkorligi, aniq ishlashi va xavfsizlik darajasi bilan inson omilidan ustun turishini inobatga olishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan, faktorlarning yashil taraqqiyotga bo'lgan hissasi yuqori va tezlik bilan amalga oshmasada, SIning bilvosita ko'rsatadigan ta'sirlari orqali atrof-muhitga yetayotgan zararlarni kichik miqdorda yaxshilashga erishishimiz mumkin.

Sun'iy Intellekt va "Yashil Iqtisodiyot" sohalari bir-biriga bog'liqlik jihati yo'qdek ko'rinishi mumkin. SI yashil soha rivojiga o'zining to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'sirlarini mavjud (2-rasm). [6]



2-rasm. Sun'iy intellektning Yashil iqtisodiyotga to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita ta'siri.




Sun'iy Intellektning o'z ma'lumotlarini qayta yangilab turish, ma'lumotlarni tahlil qila olsih qobiliyati va katta hajmdagi ma'lumotlar bilan ishlash qobiliyati uning imkoniyatlarini yanada yaxshilashga xizmat qiladi.

Sun'iy Intellekt sohalarda energiya taqsimlash, tadbirkorlik faoliyati kabi sohalarni rivojlantirish uchun yordamchi vazifasini bajarib beradi. Bu o'z navbatida, ushbu sohalarda industrial o'zgarishlarga sababchi bo'lib, yashil rivojlanish uchun xizmat qiladi.

Asosan, mavzu "yashil iqtisodiyot", "yashil islohotlar" haqida gap borar ekan, davlatning fiskal siyosatida kutiladigan o'zgarishlar, budget defitsiti, qo'shimcha subsidiyalar va davlat qarzining ortishi tushuniladi. Ko'pincha, mamlakatlar o'z risklarini hisoblagan holda, xarajatlar oshib ketishini oldini olish uchun yangi loyihalar uchun mablag' ajratishga rozi bo'lishmaydi. Ammo, Sining samaradorlikni oshirish ta'siri orqali, to'g'ri qarorlar chiqargan holda o'z risklarimizni minimallashtira olamiz.

PwC tahlillariga ko'ra [7], Sining qishloq xo'jaligi, transport, suv taqsimoti va energiyaga integratsiyasi natijasida 2020-yildan 2030-yilgacha dunyo YaIM hajmiga \$3.6 - \$5.2 trillion AQSH dollari, yoki 3.1% - 4.4% miqdorda foyda keltirishi mumkinligini ta'kidladi (3-rasm),



3-rasm. Sun'iy Intellektning 4 soha bilan integratsiyasi natijasida YaIMga bo'lgan ta'siri.

Ushbu YaIMga bo'lgan ta'sir asosan 3 yo'nalishda olib boriladi:

Ishlab chiqarish jarayoniga yangi Sun'iy Intellekt texnologiyalari olib kirilishi jarayonni tezlashtirib, aniqlikni oshirgan holda, ortiqcha xarajatlar qisqarishi evaziga daromadlar oshishiga sababchi bo'ladi. Misol uchun, qishloq xo'jaligida suvni monitor qilish evaziga, suv taqsimoti teng ravishda amalga oshiriladi va ortiqcha suv isrofining oldini olinadi.

Yangi texnologiyalari samaradorligi yuqori hisoblanib, bir vaqtda bir necha usullarni tahlil qilib eng optimalini tanlash qobiliyatiga ega. Shuningdek, u bir vaqtning o'zida bir necha turdagi ma'lumotlar bilan ishlashi, katta hajmdagi ishlarni tezlikda bajara olishi katta ustunlik beradi.

Sun'iy Intellektning aniqlik darajasi yuqori bo'lib, sohada avtomatizatsiyaning hissasini oshirish, kamchiliklarni bartaraf etish uchun xizmat qiladi. Bu avtomatizatsiya natijasida ishchi-mutaxassislar ko'proq ish sifatini yuqorilatishga qaratilgan ishlarga ko'proq kuch sarflashadi.

Ushbu to'g'ridan-to'g'ri ta'sirlar vaqt o'tishi bilan "ikkilamchi" bosqichga o'tib mamlakat bo'ylab boshqa sektorlarga o'z bilvosita ta'sirini o'tkazadi. Mamlakatda biznes rivojlanar ekan, yangi ish o'rinlar paydo bo'ladi, yangi turdagi mahsulotlar taklifi paydo bo'ladi, savdo aloqalari rivojlanadi. O'z-o'zidan iqtisodiyot yurishi yanada jadallashadi, davlatning YaIM hajmi oshadi, bu yashil loyihalarga kiritiladigan investitsiyalar hajmi oshishiga olib keladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada, Sining yashil taraqqiyotga qo'shishi mumkin bo'lgan hissasini turli xil ko'rinishda yoritib berildi. Raqamlashtirish natijasida sohalarda avtomatizatsiyaning hissasi oshishi ishlab chiqarish jadallashuvini yuzaga keltiryabdi. Bu mamalakatlarini xalqaro savdo zanjiri uzluksizligini ta'minlab, global qiymatning oshishiga sabab bo'lmoqda.

O'zbekiston sharoitida SI texnologiyalari orqali "yashil iqtisodiyot"ga urg'u qaratilishi, ushbu ikki sohaning mamlakat hududidagi rivoji uchun muhim dastak bo'lib xizmat qiladi. Bu orqali mamlakat o'z budjeti daromad va xarajatlari farqini qisqartirishiga, investitsiyalar oqimi oshirishiga muvaffaq bo'ladi.



Ko'rib turibmizki, so'nggi 20 yil ichida texnologiyalar olamida tasavvur qilib bo'lmas darajada inqiloblar yuzaga keldi. Internetning aholi orasida keng tarqalishi boshlanishi bilan odamlarda internetning jamiyatga ta'siri natijalariga qiziqishni boshlashdi. Bu tendensiya o'sib borib, SI bosqichiga yetib keldi va insonlarning kunlik majburiyatlarini SI bajarishining guvohi bo'lyabmiz. Kelajak sari qadam bosar ekanmiz, biz xolislikni yo'qotmaslik va yangi texnologiyalar yaratib berishi mumkin bo'lgan imkoniyatlardan unumli foydalanish va jamiyatdagi muammolarni hal qilishda samarali foydalanmoqligimiz zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNFCCC. (2022). Sixth biennial report of the European Union. Retrieved from <https://unfccc.int/documents/310885>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son "2019 – 2030-yillar davrida O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori
3. Yigitcanlar, T., Mehmood, R., & Corchado, J. M. (2021). Green artificial intelligence: Towards an efficient, sustainable and equitable technology for smart cities and futures. *Sustainability*, 13(16), 8952
4. Gozgor, G., Mahalik, M. K., Demir, E., & Padhan, H. (2020). The impact of economic globalization on renewable energy in the OECD countries. *Energy Policy*, 139, 111201.
5. Liu, Z., Sun, Y., Xing, C., Liu, J., He, Y., Zhou, Y., et al. (2022). Artificial intelligence powered large-scale renewable integrations in multi-energy systems for carbon neutrality transition: Challenges and future perspectives. *Energy and AI*, 11, 100195
6. Chen, M., Wang, S., & Wang, X. (2024). How does artificial intelligence impact green development? Evidence from China. *Sustainability*, 16(3), 1260.
7. PwC. (2021). How AI can enable a sustainable future. PwC Analyses



MUNDARIJA

YOSHLAR – ERTAMIZ EGALARI!.....	5
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna	
ОСНОВНЫЕ ПОКАЗАТЕЛИ ОЦЕНКИ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ НАЛОГОВЫХ ОРГАНОВ И ПОДХОДЫ В СОВРЕМЕННОСТИ	6
Абдурахимов Абдор Зафарович, Файзиёв Фаррух Абдуллахожаевич	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	13
Akramova Aziza Abduvohidovna	
“ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR”	20
Eldorbekov G‘ofurbek Iskandarbek o‘g‘li	
BARQAROR KELAJAK UCHUN BudgetLASHTIRISH: YASHIL TASHABBUSLAR UCHUN DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISH.....	27
Meyliev Obid Raxmatullayevich, Gofurova Kamola Xayrulla qizi	
UZBEKISTAN’S STRATEGY FOR TRANSITION TO “GREEN ACCOUNTING”: EXISTING PROBLEMS AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	32
Ochilov Farxodjon Shavkatjon ugli, Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna	
ЎЗБЕКИСТОНДА YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA SUN’IY INTELLEKTNING O‘RNI: URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK VA IQTISODIY INTEGRATSIYALASHUV.....	37
Kuvatova Oliya Sheraliyevna, Husenov Muhridin Bahriddinovich	
UZBEKISTAN’S TRANSITION TO A GREEN ECONOMY STRATEGY: CURRENT CHALLENGES AND PROMISING OPPORTUNITIES.....	43
Ikromova Munisa Ikrom qizi	
ЎЗБЕКИСТОНДА “YASHIL” IQTISODIYOT XARAJATLARINI DAVLAT BUDJETIDAN MOLIYALASHTIRISHNING AHAMIYATI.....	48
Isaxonova Ruxshona Muzaffar qizi	
YASHIL IQTISODIYOTNING DOLZARBLIGI HAMDA BARQAROR TARAQQIYOTGA TA’SIRI.....	54
Isroilov Eldorbek Elyorbek o‘g‘li	
GREEN FINANCE IN UZBEKISTAN: ADVANCING SUSTAINABLE DEVELOPMENT THROUGH INNOVATIVE STRATEGIES	60
Jenisbekova Nazerke Jenisbekovna Yuldasheva Nadira Viktorovna	
“YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: O‘ZBEKISTON VA XITOIY	69
Lazimov Ilhombek Komil o‘g‘li, Nazarov Nodirjon Namoz o‘g‘li	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ YASHIL IQTISODIYOTGA O‘TISH JARAYONIDA XORIJ TAJRIBALARINI JORIY ETISH ORQALI SAMARADORLIKKA ERISHISH TAMOIYILLARI	77
Mamayusupova Shohina Ulug‘bek qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К “ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКЕ”: СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	83
Махмудова Юлдузхон Бахромжон кизи	
ЎЗБЕКИСТОННИНГ “YASHIL IQTISODIYOT”GA O‘TISH STRATEGIYASI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR	89
Mirzohamdamov Abdurasul Ravshan o‘g‘li, Beknazarov Zafarjon Ergashevich	



O'ZBEKISTONNING "YASHIL IQTISODIYOT"GA O'TISH STRATEGIYASI VA BU ORQALI BARQAROR IQTISODIYOTGA ERISHISHI: MAVJUD MUAMMO VA ISTIQBOLLI IMKONIYATLAR.....	94
Saydamatova Muxlisabonu Rasuljon qizi	
СТРАТЕГИЯ ПЕРЕХОДА УЗБЕКИСТАНА К "ЗЕЛЕННОЙ ЭКОНОМИКЕ": СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ И ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ	100
Усмонов Дониёр Ибрагимович, Насырходжаева Диляфруз Сабитхановна	
NEW INSURANCE PRODUCTS IN GREEN ECONOMY: NEW OPPORTUNITIES AND RISKS IN THE FINANCIAL SECURITY CONTEXT.....	110
Xodjaraxmanova Nazira Bakhtiyar kizi	
PRIORITY DIRECTIONS FOR THE DEVELOPMENT OF GREEN ECONOMY IN UZBEKISTAN	117
Yo'ldoshev Ozodbek Abduvohid o'g'li	
QAYTA TIKLANUVCHI ENERGIYA RESURSLARINI MOLIYALASHTIRISHGA OID LOYIHALARINI AMALGA OSHIRISH VA ULARNING STATISTIKASI	122
Yoqubboyev Ilhomjon G'ulomjon o'g'li	



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2024-yil 17-18-oktabr, № 5 maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
